

TURKIY TILLARNING QIYOSIY-TARIXIY GRAMMATIKASINI O'RGANISH BOSQICHLARI

Eshmonov Nursulton Baxodir o'g'li

15-umumiy o'rta-talim maktabi

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

sultonmuhammad2112@gmail.com

+99899 476 28 93

Biz bugun kecha eslashimiz mumkin bo'lmagan ma'naviy qadriyatlarimizni xotirlashgina emas, kerak bo'lsa, qayta tiklash imkoniyatiga egamiz. Istiqlool sharofati tufayli xalqimizning ulkan ma'naviy merosi, boy tarixini xolisona o'rganish uchun keng yo'l ochildi. Zero, Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Ajdodlarim iz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming minglab qo'lyozmalarda, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, axloq. falsala. tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya. Me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar. Shu ma'noda, ma'naviy merosimizning nodir durdonalaridan sanalgan Nosiruddin Burhomiddin Rabg'iziyning "Qissasi Rabg'uziy" asari lug'at tarkibini chuqur va ilmiy jihaldan tadqiq etish hozirgi kunda amalga oshirilishi zarur bo'gan man'ba sanaladi. O'zbek mumtoz adabiyotining ilk nasriy asarlaridan hisoblangan "Qisasi Rabg'uziy" da xalq turmushlarning turli jabhalari ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, harbiy, ma'daniy, diniy- maishiy, kasb-hunar, jug'rofiy sohalarga oid leksik birliklar qo'llanilgan. Bular, o'z navbatida, xalqimizning hayoti, tili. Ma'daniyati, urf-odati, an'analari haqida ma'lumot beradi. Demak, jamiyat va til tarixi ham da uning qadimiy holatidan boxabar bo'lishda yozma yodgorliklar katta rol o'ynaydi. Chunki til ijtimoiy hodisa sifatida talablariga muvofiq takomillashib boradi va har bir davrda kishilarning o'zaro aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shunday ekan, "Qissasi Rabg'uziy, asari so'z boyligini tadqiq etishda nafaqat o'zbek xalqining uzoq o'tmishini ilmiy asosda yoritish, shuningdek: o'zbek adabiy tili tarixini o'rganishda g'oyat muhimdir.

Turkologiyada X -X IV asr turkiy obidalar til xususiyatlarini ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq qilish borasida qator jiddiy ishlar amalga oshirilganligi ilm ahliga, ayniqsa, til tarixi mutaxassislariga yaxshi ayon. Eski turkiy tilning boyligini atroflicha tahlil qilishda A. Borovkov, S. Mutallibov, (Abdurahmonov. A. Najib, E. Fozilov. Q. Mahmudov, Q. Karimov, Ne'matov, 11. Dadaboev. Q. Sodiqov kabi turkolog-olimlarning maktablari bo'lganligi e'tirof etilgan. Bevosita "Qissasi Rabg'uziy" obidasi tilini o'rganish borasida fikr yuritganda shuni aytish joizki, Y. Shinkevich" asarning sintaksisi bo'yicha, A. Abrajev 12 yodgorlikdagi qo'shma so'zlar to'g'risida

ilmiy izlanishlarni amalga oshirgan. 1969- yilda Q . Mirzakarimova Sankt-Peterburg nusxasi asosida asarning morfologik xususiyatlari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi A . Xaliullina obidaning Ilm nashri, London va ikkita Qozon nusxalarini qiyoslagan holda uning yozuv, fonetik hamda morfologik xususiyatlarini o'rgangan. Bundan tashqari, X . Boeshoten (Germaniya) va (Benigiya)larning "Qissasi Rabg'uziy" bo'yicha bir nechta maqolalari mavjud Ma'lumki, sho'rolar davrida payg'ambarlar qissalarida iborat ushbu obidani chop etish va uni o'rganish yuzasidan tadqiqotlar amalga oshirilmadi. Istiqlol yillarida bu boradagi ishlur birmuncha joylanildi. Jumladan, H. Dadaboev tomonidan qissadagi ijtimoiy-siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy terminlar, astroponimlar tadqiq etildi. yodnoma leksikasi bo'yicha bir qator maqolalar e'lon qilindi. N . Husanov qissa tilida ifoda etilgan farishtalar. payg'ambarlar va ularning qarindoshlari, oila a'zolari, xalilalar. avliyolar nomini anglatuvchi antroponimlar xususida ilmiy izlanish olib bordi. R Zahidovning "Qissasi Rabg'uziy" asari yozilishi tarixi, tili va uning muallifi nasl-nasabi. tug'ilib o'sgan joyi bilan bog'liq ma'lumotlar aks etgan maqolalari o'quvchilarga taqdim etildi. Shunga qaramasdan, hanuzgacha "Qissasi Rabg'uziy" obidasi leksikasi maxsus tadqiqot obyekti bolgani yo'q. Shu bois, mazkur mavzuning ilk bor monografik jihatdan tadqiq etilishini mamlakatimizda boy ma'naviy merosni o'rganishga davlat siyosati darajasida ahamiyat berilayotganligining mahsuli sifatida baholash lozim bo'ladi.

Qadimgi yozma manbalar tilini ko'zdan kechirishda, uning leksik tarkibi o'sha davrda yashagan turkiy qabilalarning hayoti, turmush tarzi, urf-odatlariga to'g'risida tasavvur uyg'onadi. Birgina misolni olaylik: lashkarboshilar qabriga, murdaning yoniga kichkina tosh haykalchalar qo'yilgan. Ular jangda o'ldirgan dushmanlari sonini anglatadi. Ana shu haykalchalar balbal deb aytilgan. Ilmiy manbalarda yozilishicha, odam qiyofasidagi «balbal» deb nomlanuvchi bu toshlar qadim turk xoqonliklari davridan meros. Bu kabi tarixiy tosh haykallar turkiyzabon xalqlar yashagan makonlarda – Rossiya, Ukraina, Ozarbayjon, Qozog'iston, Mo'g'ulistonning ko'plab joylarida uchraydi. Balbal ma'lum bir hududda mashhur bo'lgan odamning hurmatiga bunyod etilgan. Ular asosan elini, yerini dushmanlardan himoya qilgan botirlar hurmatiga o'rnatilgan. Balbal – qadimiy turkiy so'z bo'lib, «bal-bal», ya'ni «zarba bermoq», «qoqmoq», «urmoq» kabi ma'nolarni anglatadi. Turkiyshunos olimlar fikricha, balbal – «toshni tik qilib o'rnatgan belgilar» degan ma'noga ega. Balbalning etnomadaniy ma'nosi qadimgi turkiy davrda, ya'ni VI-IX asrlarda alohida mazmun kasb etgan. U paytlarda qadimgi turkiy urf-odat va an'analarga ko'ra, balballarning aksariyati xoqon, tegin, torxon, chor, tudun, biy, bek kabi elboshchilar, botirlar, oqsuyak odamlarning hurmatiga maxsus yasalgan. Ular orqali motam tutilgan, marhumning ruhi hurmatiga «yo'qlash» kabi udumlar bajarilgan. Marhumning ruhini shod qilish marosimida qatnashganlar o'zlari yashayotgan makonidan balbal toshlarni

olib kelgan va an'anaga muvofiq, marhumning dafn etilgan joyida oraliq masofasini birdek qilib, qatorlashtirib o'rnatgan. Ushbu esdalik majmuasini yaratishga ishtirok etganlar o'zlarining qavmi, urug'-toifasi tamg'alarini yoki qadimgi turkiy bitik yozuvi bilan ismlarini, lavozim, unvonlarini yozgan. Bu qadimgi turkiy qavmlarning o'ziga xos yo'qlash marosimidan darak beradi. Markaziy Osiyoda islom dinining keng tarqalishi bilan toshlardan esdalik yasash o'z ma'nosini yo'qota boshlagan.

Turkiy tillar tarixini o'rganishda ikki yo'nalish — tarixiy grammatika va adabiy tillar tarixini yaratish yuzasidan izlanishlar olib borildi. 60- 70- yillarda turkiy tillar tarixi bo'yicha bir qancha monografiyalar, darsliklar, qo'llanmalar yaratildi. Turkologiya tarixida sinxronik va diaxronik aspektdagi tadqiqotlar yuzaga keldi. Turkiy tillar tasnifi, turkiy tillar fonetikasi, leksikologiyasi, semasiologiyasi, terminologiyasi, leksikografiyasi, grammatikasiga doir izlanishlar olib borildi, monografiyalar, qo'llanmalar yaratildi, ilmiy maqolalar e'lon qilindi. Turkiy tillarda yaratilgan yozma yodgorliklar o'rganildi, nashr etildi. Keying yillarda turkologiya sohasida bir qator yangi tadqiqotlar yuzaga keldi. Eng qadimgi sug'd, ko'k turk (o'rxun-enasov, turkiy run), eski uyg'ur (turk) yozuvlaridagi yodgorliklarni o'rganishga oid izlanishlar olib borilmoqda. K o'k turk xoqonligi davrida yaratilgan Bug'ut mangutoshi, uning tiklanish tarixi, yodgorlikda saqlanib qolgan sug'dcha bitig talqini, sug'd tilidagi arablar istilosi bilan bog'liq nazariy qarashlar, ko'k turk bitiglari, ko'k turk yozuvining o'ziga xos jihatlari, imlo xususiyatlari, ko'k turk xatida bizgadha yetib kelgan To'nyuquq, Kultegin, Bilga xoqon, Suji bitiglarining matni talqini. turkiy yozma yodgorliklar asosida rasmiy uslubning yuzaga kelishi, taraqqiyot bosqichlari, hujjat turlari haqida muhim ma'lumotlar qayd etilgan.

“Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi” fani turkiy tillarning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini o'rganadi, ularning tarixiy rivojlanishi va o'ziga xosliklarini yoritadi. Talabalar fan orqali turkiy tillarning shakllanishi, tasnifi va ularning boshqa tillar bilan munosabatlarini chuqur o'rganadilar.

Tub turkiy so'zlar turkiy tillarning o'z materiali, o'z ona mulkidir. Bu so'zlar turkiy tillar oilasiga mansub bo'lgan barcha tillarda uchraydi. Bu hol turkiy tillar leksikasida bu tillar uchun qadimdan mushtarak bo'lgan umumiy leksik fondni yuzaga keltirgan. Turkiy tillar lug'at tarkibidagi mana shu mushtarak leksika turkologiyada umumturkiy so'zlar deb yuritilmoqda. Turkiy tillar lug'ati ayrim so'zlarga ko'ra farqlanadi. Turkiy tillar oilasi tarkibiga kiruvchi o'zbek tilining ijtimoiy-siyosiy mavqei va obro'yi dunyo jamiyatida keyingi yillarda ortib bormoqda. Turkiy tillar oilasi uchun xos bo'lgan fonetik, grammatik va leksik xususiyatlar bir - biriga yaqinligi bo'lsada, ular sezilarli darajada farqlanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Дадабоев Х- “Кисаси Рабгузий”нинг лексик хусусияглари хпкида/ Марказий Осиё олимларининг урта асР илмларига кушгии хиссиси. -Т., 1999. —Б. 17-23; “Кисаси Рабгузий”даги аёл семали лексемалар ху су с и д а/7Ф и л о л о г и я фани: янги аср муаммолари. -Т., 2003. -Г>
2. “Кисаси Рабгузий” тилидаги туркий лексемалар семантикаси//Вю|1 (1Й международный тюркологический конгресс. Современная тюркология: теория, практика и перспективы. I. Болим. Туркестан, 2006. -Б.
3. “Кисаси Рабгузий”да кулланган сал= феълининг семалари хусусидм // Узбек тилшунослиги масалалари. —Т.: 2006. -Б. 22-25.
4. Хусанов Н. XV аср узбек адабий ёдгорликларидаги антропоним,ларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. Филол. фан. д-ри ... дисс. -Т., 2000. 243 б.
5. Зоҳидов П. Кун тугардин кун ботарга сузи етган зот // Узбекистон адабиёти ва санъати. 22 февраль 2002 йил. -Б . 2; Рабгузий саодати // Гафаккур,- №1. 2008. -Б. 74-81.
6. Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. — Тошкент, 2009. 4.
7. Dadaboyev H., Holmanova Z. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. — Toshkent, 2015.
8. Ё Саидов. Жадидлар ва Ойбек/Адабиёт ва таржима: Илмий мақолалар тўплами. Т.: Зарқалам, 83-85